

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga
xos jihatlari.....285

Sh.Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi
faoliyati293

K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova

Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion
(the example of Jizzakh)297

ADABIYOTSHUNOSLIK**S.Mirzaeva, N.Y.Usarova**

A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and
uzbek folklore literature301

A.G.Sabirdinov

Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik307

G'.O.Xolbutayev

Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati310

O.Barziyev, F.Baxtiyor

Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi317

S.A.Xodjayev

Folklor namunalarida uchlik timsoliga asoslangan ramzlar323

H.K.Сабиров, В.А.Гиёсова

Движение джадидизм и узбекская детская литература326

G.Ch.Muratova

G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri329

TILSHUNOSLIK**N.R.Gafurova**

O'zbek va ingлиз tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari333

Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova

O'zbek va ingлиз tillarida iboralarning qo'llanishi338

Y.E.Ro'ziboyeva

Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning
lingvakulturologik xususiyatlari341

N.R.Gafurova

Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari344

M.G.Khoshimov

Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical
clause as an invariant type of syntactic unit347

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Jahon tilshunosligida matn taddiqi haqida354

M.M.Aslonov

The educational process and content of educational activities in the
"House of Bukhara education"358

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida362

G.R.Mamadalieva

Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili367

P.Sh.Kaxramonova

Badiiy asar tili va ekolingvistika373

H.U.Davlatova

Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar376

H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova

Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari380

Z.V.Alimova, M.Rasulova

JADIDCHILIK, MUXTORIYAT, MUSTAQILLIK**ЖАДИДИЗМ, АВТОНОМНОСТЬ, НЕЗАВИСИМОСТЬ****JADIDISM, AUTONOMY, INDEPENDENCE****Sabirdinov Akbar Gofurovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori**Annotatsiya**

Maqolada jadidchilikning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy omillar yoritilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Turkiston hayotida jadidlarining o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi, uni ko'p o'tmay mustamlakachilar tomonidan qonga botirgan holda taraqqiyat yuborilishi, jadid adabiyotida ushbu xunrezliklarning aks etishi yoritilgan. Mavzuni tahlil etishda Mustafa Cho'qay o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpion asarlariga murojaat etilgan.

Аннотация

В статье описаны социальные и политические факторы, приведшие к возникновению джадидизма. Анализируется роль и значение джадидов в жизни Туркестана во второй половине XIX - начале XX века. Освещены создание Туркестанской автономной области, ее последующий кровавый распуск колонизаторами, отражение этих кровопролитий в современной литературе. При анализе темы были упомянуты труды Мустафы Чокай оглы, Махмудходжи Бехбуди, Хамзы Хакимзаде Ниязи, Абдулхамида Чолпана.

Abstract

The article describes the social and political factors that led to the emergence of Jadidism. The role and importance of jadids in the life of Turkestan in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century is analyzed. The establishment of the Turkestan Autonomous Region, its subsequent bloody dissolution by the colonialists, and the reflection of these bloodsheds in modern literature are covered. In the analysis of the topic, the works of Mustafa Chokai oglu, Mahmudhoja Behbudi, Hamza Hakimzada Niyazi, Abdulhamid Cholpan were referred to.

Kalit so'zlar: jadidchilik, erk va ozodlik, islohotlar, Muxtoriyat, she'riyat, Turkiston, ilm-fan, maorif, idora usuli**Ключевые слова:** жадидизм, свобода и свобода, реформы, автономия, поэзия, Туркестан, наука, образование, административный метод**Key words:** jadidism, liberty and freedom, reforms, autonomy, poetry, Turkestan, science, education, administrative method**KIRISH**

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o'lka hayotida ijtimoiy-siyosiy silsilalar, yangilanishlar davri sifatida tarix sahifalaridan o'rinn oldi. Turkistonning oxir-oqibat chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishi, boyliklarning tashib ketilishi, mustamlakchilik siyosati oqibatida taraqqiyotdan chetda tutib turilishi xalqning ahvolini g'oyat og'irlashtirdi. Jadidchilik ana shunday sharoitda – "ehtiyoj farzandi" sifatida yuzaga keldi. Yurting ziyorilari – jadidlar mustamlakachilar tomonidan olib borilayotgan shovinistik siyosatning mahalliy aholi uchun halokatli oqibatlarini chuqur angladilar, uni oldini olishga harakat qildilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyorilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid boborimizni eslaylik"[1,1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

1917-yil 25-oktabrda bosh ko'targan "yangi bir balo – bolshevik balosi!" (Fitrat iborasi) dingga barham berish, milliy urf-odatlarni, tilni, o'tmishni unuttirish, mustamlakchilik sirtmog'ini qattiqroq bog'lab, asoratda saqlash niyati bilan maydonga keldi. Bolsheviklar oktabr to'ntarishining dastlabki yillarda mustamlaka hududdagi xalqlarga to'la erkinliklar berish borasidagi va'dalarini bajarmadilar. Balki, so'z boshqa-yu ish boshqa qabilida faoliyat yuritdilar. Jadidlar o'sha paytdagi xorijiy davlatlarning idora usuli, maorif, madaniyat, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan tanishdilar va Turkistonni ham ular qatorida ko'rishni orzu qildilar. Ona yurtlarida barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirmay turib bunga erishish mumkin emas edi. Avvalo turli "hayriya jamiyatlar" yordamida yoshlarni xorijiy davlatlarga o'qishga jo'natib, milliy mutaxassislar tayyorlashni yo'nga

qo'ymoqchi bo'ldilar. Chor hukumati ham, sho'rolar ham bu maqsadni amalga oshishiga qarshilik qildi.

1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda Musulmonlarning IV o'lka qurultoyida Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi ziyolilarning yurt mustaqilligi uchun tashlagan "go'dak qadami" edi. Buni juda yaxshi anglagan sho'ro hukumati bu orzuni qonga botirish bilan sarobga aylantirdi. Muxtoriyat 1918-yilning 19-22-fevral kunlari xoinona tajovuz bilan o'n ikki mingga yaqin mahalliy aholini qirish orqali tarqatib yuborildi. Keyin xorijga ketib, panoh topgan Turkiston Muxtoriyatining raisi Mustafo Cho'qay o'g'li "1917-yil xotiralari" kitobida shunday alamlı satrlarni bitgan edi: "1917-yilgi Rusiya inqilobi ustidan o'n to'qqiz yil o'tdi. Bu inqilobni qanday sevinib, hovliqib qarshi oqanimiz haligacha hammamizning esimizda turibdi. Ko'p turkistonliklar, ayniqsa qariyalar, 1917-yil inqilobini Rusiya bilan Turkiston orasida kechilmash zovur ochgan 1916-yil Turkiston qo'zg'olonining mantiqiy natijasi deb qabul etgan edilar. Yoziqki, bizning bu quvonchimiz uzoq surmadi. Inqilob bizning umidlarimizni yiqdi, ishonchimizni bitirdi, aldanganimizni ochiq ko'rsatdi... Keng yurtimiz qurban bo'lgan o'z bolalarining qoni bilan suvlanib, ulurning tani bilan qoplandi. Minglarcha Turkiston yigitlari yangi maska taqinib chiqqan eski mustamlakachilarga qarshi kurashib o'ldi. Minglarcha yosh Turkiston qahramonlari sovet Rusiya zindonlarida, surgnlarda chirimoqdalar. O'n minglarcha, hatto yuz minglarcha turkistonliklar inson kabi yashash imkoniyatini qidirib yurtlarini tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. Bu tariqa sevinch, umidlar bilan qarshi olingen inqilob umumiyy milliy fojiamiz shaklini oldi" [2,8].

1918-yilning dastlabki kunlarda yozilib, "Ulug' Turkiston" gazetasining 11-yanvar sonida e'lon qilingan Hamza Hakimzoda Niyoziyining "Turkiston Muhtoriyatina" she'rida

To'rt yuz yillik Romanov bitgach davlati,
Ko'tarildi asorat, xo'rlik zillati,
Nasib o'ldi millata qaytib shavkati,
Qutlug' bo'lsin Turkiston Muxtoriyati
Qutlug' bo'lsin Turkiston Muxtoriyati,
Yashasun endi birlashub islom millati!
Bugun Chingiz, Temurdek shohlar arvohi,
Dunyo yuzin titratgan askar sipohi,
Qichqurub der: "Turk o'g'li, o'lmanq siz sohi!"
Qutlug' bo'lsin Turkiston Muxtoriyati,
Yashasun endi birlashub islom millati! [3,155]

tarzda olqishlangan, yurt ozodlikka chiqadi, deya umid bildirilgan edi. Yoki, Abdulhamid Cho'lpionning "El bayrog'i" gazetasining 1917-yil 13-sonida Turkiston Muxtoriyat hukumatining e'lon qilinishi munosabati bilan yozilgan "Ozod turk bayrami" she'rida quyidagi o'tli satrlar bor edi:

Ko'z oching, boqing har yon!
Qardoshlar, qanday zamон!
Shodlikka to'ldi jahon!
Fido bu kunlarga jon!
Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,
Vatan – bizning jonimiz, fido o'lsin qonimiz.
Turk beshigi – Turkiston!
Yeri oltun, tog'ları kon!
Bolalari qahramon!
Vatan uchun berur jon!
Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,
Vatan – bizning jonimiz, fido o'lsin qonimiz [4,22-23].

Ushbu she'r o'sha kunlari varqa tarzida nashr etilib, aholiga tarqatilgan va Muxtoriyat madhiyasi sifatida qabul qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Turkiston jadidchiliginining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy "Hurriyat" gazetasining 1917-yil 22-dekabrdagi e'lon qilingan "Turkiston muxtoriyati" nomli maqolasida yozadi: "Rus hamvataniimizning aksari muxtoriyat tarafidordurlar. Zamoni hoziranining siyosatiga qaraganda, Turkiston Muxtoriyatini rus majlisi muassisoni va ham muhokamai sulh bilandur, albatta,

ADABIYOTSHUNOSLIK

mustahkam etar. Bolsheviklarga kelguncha, bularning ham asl matlabi muxtoriyatli jumhuriyatdurdur. Ammo bular deydilarki, yerlik jumhuriyat bo'lmasun, ya'ni yer va amlok taqdim bo'lsun. Mana, bularning nutqi ixtilofi. Turkiston muxtoriyatchilari deydilarki, bir yerlik muxtoriyat tilaymiz va ham muni e'lon qilduk. Bizning yer va amlokimizning taqsimini xohlaydurganlarga butun jon va iyomonimiz ila muqobala qilurmiz ham. Mana ey, xonanda, bil va ogoh bo'iki, muxtoriyat uchun, albatta, qon to'kilmaydur, ammo yer va amlokning taqsimi ustida, albatta, uzoq qon to'kursan. Zotan, muxtoriyat yer va amlok va dini mubin uchundir. Shunda bilmoq kerakki, butun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur. Ming karra dodu bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq etganimiz va ixtilofimiz sabab ila badbaxtlikg'a duchor bo'lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvat olamg'a kelurki, munga yer titraydi. Agar so'zimni fahmlatolgan bo'lsam, o'zimni baxtlik hisoblardim" [5,496-497]. Shuningdek, bolsheviklarning muxtoriyatga tish-tirnog'i bilan qarshi ekanliklarini chuqur his etgan Mahmudxo'ja Behbudiy "Hurriyat" gazetasining 1918-yil 26-yanvar sonida "Qozoq qardoshlarimizg'a ochiq xat" bilan murojaat qiladi. Unda shunday satrlar o'rinni ovgandi: "Bovurlar! Bilingki, hozirda Turkistondagi barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va, siz bilingki, "Haq olinur, berilmas!" Ya'ni "Muxtoriyat"ni Turkiston bolalarining o'zi birlashib g'ayrat ila olurlar, albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'lig'a sa'y qilmasak, albatta hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar, bul albatta, shundaydur va bul so'zg'a xech kim ixtilof qilolmaydur. Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiy va xristianlar birlashib ittifoq ila shu muxtoriyatning amalg'a kelishig'a sa'y va ehtimom etmog'imiz lozimdir. Agarda bizg'a o'z boshimizg'a, shariat, urf va odatlarimizg'a muvofiq tirikchilik qilmoq kerak bo'lsa, hammamiz vaqtli nizo' va "manman"liqni qo'yib, hamma narsani esimizdan chiqarub, yolg'iz "muxtoriyat" uchun har narsamizni fido etmog'imiz lozimdir. Munday fursat va zamonning bizg'a qaytib kelishi ma'lum yo'q, qadrni bilib ishlamoq kerakdur. Vaqt o'tgandan so'ng o'kinmoq foyda etmas" [5,497-498]. Afsuski, Behbudiy ogoh etgan voqealar sodir bo'ldi. Kuchli qurollangan bolsheviklar tayoq, bolta, to'qmoq, pichoq bilan himoyaga otlangan muxtoriyatchilarini ayovsiz o'qqa tutdilar. Samarqand, Toshkent va Farg'onadan sho'ro askarlari yetib kelib Qo'qon har tomondan qurshab olindi. Shahar yonuvchi snaryadlar bilan to'pga tutilib, bir necha kun olov qurshovida qoldi. Mustafo Cho'qay o'g'li o'z xotiralarida afsus bilan yozadi: "Hayhot! Yana shu bizning hozirsizligimiz, jonli, texnikaviy kuchlarimizning ozligi, xalqimiz tabaqasida siyosiy tushuncha yetishmasligi qarshimizga chiqdi. Bizga bu baxtsizlikni son jihatdan oz bo'lsa ham kuchli tashkilot hamda mo'l qurolga ega bo'lgan dushmanimiz keltirdi. Muxtoriyatimiz ikki oygina yashadi va kuchli qurollangan dushman qarshisida yiqildi" [2,48].

XULOSA

Sho'ro hukumati ana shu tariqa jadidlarning erkin, ozod yurt qurish to'g'risidagi orzularini ilk palladayoq yo'qqa chiqardi. Bu orzuning amalga oshishini deyarli yuz yil ortga surib tashladi. So'ng turli hiyla-nayrang va qatag'onlar bilan jadidlarni jisman mavh etdi. Ularning tabarruk nomlariga yuzsizlarcha qora chaplab, avlodlar xotirasidan o'chirmoqchi bo'ldi. Ammo vaqt – odil hakam. Mazlum xalqlarning ko'z yoshlari, to'kilgan qonlari evaziga qurilan har qanday yovuz saltanat oxir-oqibat tanazzulga yuz tutishini tarix ko'rsatdi. XX asrning so'nggi o'n yilligida yurtimiz mustaqillikka erishib jadid bobolarimizning orzulari amalga oshdi. Ularning faoliyati, ijodi xolis bahosini oldi [6,34]. Bizning esa kelgusida fidoyi jadid bobolarimiz qutlug' nomlarini munosib baholash, arxiv hujjatlari ichida yashirinib yotgan asarlarini xalqqa tanitish borasidagi qiladigan ishlarimiz ko'pdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. – "Халқ сўзи" газетаси. – 2023 йил 23 декабр.
- Мустафо Чўқай ўғли. Истиқбол жаллодлари (1917-йил хотиралари). – Тошкент: Faafur Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.
- Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988.
- Чўллон. Асарлар. IV жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
- Махмудхўжа Беҳбудий. Таъланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021.
- Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016.